avvalo o‘zakning fonetik tuzilishi, bo‘g‘in tarkibi hamda qo‘shimchalarning grammatik vazifasi bilan belgilanadi. Tub fe’llarda va ayrim yasama fe’llarda urg‘u, asosan, o‘zakda saqlanadi. Shuningdek, fe’lga qo‘shiladigan grammatik ko‘rsatkichlar, jumladan, 2-shaxs ko‘plik, nisbat, ravishdosh va harakat nomi yasovchi affikslar urg‘u olmaydi va leksik urg‘u o‘zakda qoladi. Biroq -(u)v, -gan, -(a)r kabi shakllar urg‘u oladi, natijada urg‘u affiksli bo‘g‘inda markazlashadi. Bu esa fe’l shakllarida urg‘uning faqat fonetik omillar bilan emas, balki grammatik va semantik omillar bilan ham uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Fonetik reduksiya yoki tor unlilarning ishtiroki urg‘uning keyingi bo‘g‘inga ko‘chishiga sabab bo‘lishi ham qayd etildi.

Kontekstual tahlil asosida esa fe’l urg‘usining gap tarkibidagi vazifasi ham muhim. Fe’l kesim vazifasida kelganda nafaqat leksik urg‘u, balki mantiqiy va ta’kid urg‘usining ham markaziga aylanishi mumkin. Analitik shakllarda ko‘makchi, yordamchi va to‘liqsiz fe’llar urg‘u olmaydi

Xulosa o‘rnida, o‘zbek tilida fe’l so‘z turkumida urg‘u tizimi murakkab va ko‘p omilli hodisa bo‘lib, uning namoyon bo‘lishida fonetik tuzilish, morfologik shakllanish va nutqiy-kontekstual vaziyat birgalikda ishtirok etadi. Shu bois fe’llarda urg‘uni o‘rganish nafaqat fonetika, balki morfologiya, sintaksis hamda nutq lingvistikasi uchun ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). P.Ladefoged and K.Johnson, A Course in Phonetics, 6th ed. Boston, MA, USA, Wadsworth/Cengage Learning, 2011.

(2). Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Toshkent, “Universitet”, 2006, 159-bet.

(3). Sayfullayeva R., Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, “Fan va texnologiya”, 2010, 185-bet.

(4). Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2013, 139-bet.

(5). Mirtojiyev M.M. O‘zbek tili fonetikasi. Toshkent, “Fan”, 2013, 175-bet.

Ibragimova Shabnam Aybek qizi (Urganch davlat Tibbiyot instituti ingliz tili o‘qituvchisi, Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi; phoebeshabnam@gmail.com)

INGLIZ VA O‘ZBEK TILIDA E’TIQOD MAZMUNLI PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING STRUKTUR XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi e’tiqod mazmunli paremiologik birliklarning struktur xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ikki tilda uchraydigan e’tiqodga oid maqol, matal va hikmatli iboralarning sintaktik, kompozitsion hamda semantik-struktur modellari o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlashdan iborat. Paremiologik birliklar xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi, axloqiy me’yorlari va milliy mentalitetini aks ettiruvchi barqaror til birliklari sifatida alohada ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, e’tiqod mazmunli paremiyalar insonning ishonch, sabr, taqdir, tavakkal, ezgulik, yomonlik, halollik, niyat va ruhiy qarashlarini ifodalashda faol qo‘llanadi. Maqolada qiyosiy-tipologik, struktur-semantik, deskriptiv va lingvokulturologik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot natijasida ingliz va o‘zbek tillaridagi e’tiqod mazmunli paremiologik birliklar sodda gap, qo‘shma gap, parallel konstruksiya, antitezali model, shart ergash gapli model, buyruq-istak shakli hamda elliptik konstruksiyalar asosida shakllanishi aniqlandi. Shuningdek, o‘zbek tilidagi paremiyalarda nasihat, pand, sabr va taqdirga munosabat kuchliroq ifodalansa, ingliz tilidagi birliklarda ehtiyotkorlik, axloqiy me’yor, amaliy xulosa va individual mas’uliyat semalari kuchliroq namoyon bo‘lishi kuzatildi. Tadqiqot xulosalariga ko‘ra, e’tiqod mazmunli paremiologik birliklarning struktur qurilishi ularning mazmunini ifodalashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mazkur maqola paremiologiya, qiyosiy tilshunoslik, lingvokulturologiya hamda tarjimashunoslik sohalari uchun muhim nazariy va amaliy manba bo‘la oladi.*

Kalit so‘zlar: *paremiologik birlik, e’tiqod, maqol, matal, struktur xususiyat, semantika, lingvokulturologiya, qiyosiy tahlil.*

Ибрагимова Шабнам Айбек кизи (преподаватель английского языка Ургенчского государственного медицинского института, независимый соискатель Ургенчского государственного университета; (phoebeshabnam@gmail.com)

СТРУКТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПАРЕМИОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ С СОДЕРЖАНИЕМ ВЕРЫ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *В данной статье проводится сравнительный анализ структурных особеннос-тей паремиологических единиц с содержанием веры в английском и узбекском языках. Основная цель исследования заключается в выявлении сходных и отличительных черт синтаксических, композиционных и семантико-структурных моделей пословиц, поговорок и мудрых изречений, связан-*

ных с верой, в двух языках. Паремиологические единицы имеют особую научную значимость как устойчивые языковые единицы, отражающие исторический опыт народа, его мировоззрение, нравственные нормы и национальный менталитет. В особенности паремии с содержанием веры активно используются для выражения таких понятий, как доверие, терпение, судьба, упование, добро, зло, честность, намерение и духовные взгляды человека. Согласно выводам исследования, структурное построение паремиологических единиц с содержанием веры имеет решающее значение в выражении их содержания. Данная статья может служить важным теоретическим и практическим источником для таких областей, как паремиология, сравнительное языкознание, лингвокультурология и переводоведение.

Ключевые слова: *паремиологическая единица, вера, пословица, поговорка, структурная особенность, семантика, лингвокультурология, сравнительный анализ.*

Ibragimova Shabnam Aybek qizi (Independent researcher at Urgench State University; phoebeshabnam@gmail.com)

STRUCTURAL FEATURES OF PAREMIOLOGICAL UNITS WITH BELIEF CONTENT IN ENGLISH AND UZBEK

Annotation. *This article presents a comparative analysis of the structural features of belief-based paremiological units in English and Uzbek. The main aim of the study is to identify the similarities and differences in the syntactic, compositional, and semantic-structural models of proverbs, sayings, and wise expressions related to belief in the two languages. Paremiological units are of particular scientific importance as stable language units reflecting the historical experience of a people, their worldview, moral norms, and national mentality. In particular, belief-based paremias are actively used to express such concepts as trust, patience, fate, reliance, goodness, evil, honesty, intention, and spiritual views. According to the conclusions of the study, the structural organization of belief-based paremiological units plays a decisive role in expressing their content. This article can serve as an important theoretical and practical source for the fields of paremiology, comparative linguistics, linguoculturology, and translation studies.*

Keywords: *paremiological unit, belief, proverb, saying, structural feature, semantics, linguoculturology, comparative analysis.*

Kirish. Til xalqning tarixiy xotirasi, madaniyati va dunyoqarashini o‘zida mujassam etuvchi murakkab ijtimoiy hodisadir. Har bir til tizimida xalqning ko‘p asrlik hayotiy kuzatuvlari, tajribasi, urf-odatlari va qadriyatlari barqaror ifodalar shaklida saqlanadi. Ana shunday birliklar orasida paremiologik birliklar, ya’ni, maqollar, matallar, hikmatli iboralar alohida o‘rin tutadi. Ular nafaqat tilning obrazli qatlamini boyitadi, balki jamiyatning axloqiy va ma’naviy me’yorlarini ham ifodalaydi.

Paremiologik birliklarning muhim tematik qatlamlaridan biri e’tiqod mazmunli birliklardir. Bunday birliklar insonning ichki ishonchi, sabri, taqdirga munosabati, yaxshilik va yomonlik haqidagi qarashlari, niyatning pokligi, tavakkal, ehtiyotkorlik, ruhiy tayanch va ma’naviy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. E’tiqod mazmunli paremiyalar turli xalqlarda turlicha shakllanadi, chunki ularning yuzaga kelishi milliy tafakkur, tarixiy rivojlanish, turmush tarzi va madaniy tajriba bilan belgilanadi.

Maqolaning maqsadi ingliz va o‘zbek tilidagi e’tiqod mazmunli paremiologik birliklarning struktur xususiyatlarini aniqlash va qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: e’tiqod mazmunli paremiologik birlik tushunchasini aniqlashtirish; ularning asosiy struktur modellarini tasniflash, ingliz va o‘zbek tillaridagi birliklarni qiyosiy tahlil qilish, struktur qurilish bilan mazmun o‘rtasidagi munosabatni yoritish, lingvokulturologik xulosalar chiqarish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. E’tiqod mazmunli paremiologik birliklarni o‘rganishda paremiologiya, frazeologiya, semantika va lingvokulturologiya bo‘yicha yaratilgan ilmiy manbalar muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, W.Miederning Proverbs A Handbook asarida maqollarning tabiati, funksiyasi va xalq tafakkuridagi o‘rni yoritilgan bo‘lib, paremiologik birliklarning umumiy nazariy xususiyatlarini tushunishda muhim manba hisoblanadi [1]. A.Taylorning The Proverb asarida maqollarning shakllanishi, tarixiy taraqqiyoti va struktur tabiati izohlangan bo‘lib, u paremiologik birliklarning klassik tadqiqotlaridan biri sifatida ahamiyatlidir [3].

Paremiologik birliklarning semantik va struktur tomonlarini tahlil qilishda N.R.Norrickning How Proverbs Mean: Semantic Studies in English Proverbs asari alohida o‘rin tutadi. Unda ingliz maqollarining semantik qurilishi, ma’no qatlamlari va qo‘llanish xususiyatlari ko‘rib chiqilgan [2]. A.Dundes esa maqollarning ichki strukturasi va kompozitsion modellari masalasiga e’tibor qaratib, paremiologik birliklarni struktur jihatdan tasniflashga asos yaratgan [4].

Umuman olganda, mazkur adabiyotlar e'tiqod mazmunli paremiologik birliklarning nazariy, struktur-semantik va lingvokulturologik jihatdan o'rganilishida mustahkam ilmiy asos yaratadi. Biroq ingliz va o'zbek tillaridagi aynan e'tiqod mazmunli paremiyalarning struktur xususiyatlarini qiyosiy aspektda maxsus tadqiq etish hali yetarli darajada amalga oshirilmagan. Shu jihatdan, mazkur tadqiqot ushbu bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada bir necha ilmiy metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Deskriptiv metod yordamida ingliz va o'zbek tillaridagi e'tiqod mazmunli paremiologik birliklar tavsiflandi. Qiyosiy-tipologik metod orqali ikki tildagi birliklarning o'xshash va farqli jihatlari aniqlashtirildi. Struktur-semantik metod paremiyalarning sintaktik modeli, kompozitsion tuzilishi va mazmuniy qatlamlarini tahlil qilish imkonini berdi.

Tahlil uchun tanlangan materiallar ingliz va o'zbek tillaridagi maqollar, matallar va hikmatli iboralar korpusidan olindi. Tanlash jarayonida mazmunan ishonch, sabr, tavakkal, niyat, taqdir, yaxshilik, yomonlik, ehtiyotkorlik, halollik, ruhiy tayanch kabi semantik maydonlarga tegishli birliklar saralandi. Materiallar struktur jihatdan sodda gapli, qo'shma gapli, parallel, antitezali, elliptik va buyruq-istak tipidagi modellarga ajratildi.

Nazariy asoslar. Paremiologiya frazeologiya bilan uzviy bog'liq bo'lsa-da, o'z tadqiqot obyektiga ko'ra mustaqil yo'nalish sifatida e'tirof etiladi. Paremiologik birliklar tayyor holda qo'llanadigan, xalq orasida keng tarqalgan, mantiqiy yakunlangan, ko'pincha, obrazli va umumlashgan mazmunga ega bo'lgan barqaror birikmalardir. Ularning asosiy funksiyasi hayotiy tajribani ixcham va ta'sirchan shaklda ifodalashdan iborat.

Struktur xususiyatlar paremiologik birliklarning tashkiliy qolipi, sintaktik qurilishi, komponentlararo munosabati va kompozitsion tartibini anglatadi. Paremiya mazmunining ta'sirchanligi ko'pincha uning strukturasiga bog'liq bo'ladi. Masalan, parallelizm ritm hosil qiladi, antiteza qarama-qarshilik orqali fikrni kuchaytiradi, shartli model sabab-oqibatni ochadi, buyruq-istak shakli esa didaktik vazifani bajaradi.

E'tiqod mazmunli paremiologik birliklarning asosiy struktur modellari.

1. Sodda gap modeli. Ingliz va o'zbek tillarida e'tiqod mazmunli paremiyalarning eng keng tarqalgan struktur ko'rinishlaridan biri sodda gap modelidir. Bu turdagi birliklar ixcham, lo'nda va umumlashgan xulosani ifodalaydi.

Ingliz tilida	O'zbek tilida
Hope dies last. [1]	*Sabr tagi sariq oltin.* [2]
Faith moves mountains.	*Yaxshi niyat – yarim davlat.* [3]
Truth fears nothing[4]	*Toza niyat baraka keltirar.*

Bunday konstruksiyalarda fikr sodda grammatik model orqali ifodalansa-da, ichki semantik qatlam juda chuqur bo'ladi. O'zbek tilidagi misollarda ko'proq obrazli nominatsiya kuzatiladi, ya'ni, "sariq oltin", "yarim davlat" kabi timsollar orqali sabr va niyatning qadri ifodalanadi. Ingliz tilidagi sodda modellarda esa fe'l markazli umumlashtirish kuchliroq: moves, dies kabi birliklar fikrni dinamik holatda beradi.

2. Qo'shma gap modeli. Qo'shma gap shaklidagi paremiyalar ikki yoki undan ortiq predikativ markaz orqali murakkab fikrni ifodalaydi. Ayniqsa, e'tiqod mazmunli paremiyalarda sabab-oqibat, qarama-qarshilik yoki shart munosabatlari qo'shma gap orqali aniqroq beriladi.

Ingliz tilida	O'zbek tilida
Where there is faith, there is hope.	*Kim sabr qilsa, murodiga yetadi.*
He who is patient will reach his goal.	*Niyat to'g'ri bo'lsa, yo'l ham ochiladi.*
If the heart is pure, the way becomes clear.	*Agar ko'ngil pok bo'lsa, ish yurishadi.*

Mazkur modellarda shart va natija o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlik asosiy o'rinni egallaydi. Ingliz tilidagi konstruksiyalarda nisbiy ergash gaplar va umumlashgan subyektlar ko'p qo'llanadi. O'zbek tilida esa shart mayli va ergash konstruktsiyalar xalqona hikmatni ixcham, lekin ta'sirchan tarzda ifodalaydi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi struktur o'xshashliklar. Qiyosiy tahlil natijasida ingliz va o'zbek tillaridagi e'tiqod mazmunli paremiologik birliklarda bir qator umumiy struktur belgilar aniqlandi. Avvalo, har ikkala tilda ham sodda gapli, qo'shma gapli, shartli va parallel modellar faol qo'llanadi. Bu holat paremio-

[1] 1;45–46-betlar.
[2] 10;23–24-betlar.
[3] 15;23–24-betlar.
[4] 2;22–23-betlar.

logik tafakkurning universalligidan dalolat beradi. Insoniyatning turli madaniyatlarida hayotiy tajriba, ko‘pincha, qisqa, ritmik, mantiqan yakunlangan va esda qoladigan strukturaga solinadi.

Ikkinchidan, ikkala tilda ham e’tiqod mazmunli paremiyalar umumlashtirilgan subyektga ega bo‘lishi mumkin. Bunda aniq shaxs emas, balki har qanday inson uchun taalluqli hayotiy xulosa ilgari suriladi. Masalan, “kim sabr qilsa...” yoki “he who is patient...” tipidagi strukturalar shuni ko‘rsatadi.

Uchinchidan, har ikki tilda antiteza va parallelizm e’tiqod mazmunini kuchaytirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Qarama-qarshi tushunchalarni yonma-yon keltirish fikrni yanada ta’sirchan qiladi. Parallel struktura esa ritm va simmetriya orqali mazmunning yodda saqlanishiga yordam beradi.

Tahlil va natijalar. Birinchidan, ingliz va o‘zbek tillarida e’tiqod mazmunli paremiologik birliklar, asosan, yettita struktur model asosida shakllanadi: sodda gap, qo‘shma gap, parallel konstruktsiya, antitezali model, shartli konstruktsiya, buyruq-istak shakli va elliptik model.

Ikkinchidan, har ikkala tilda ham shartli va parallel konstruksiyalar e’tiqod mazmunini ifodalashda samarali vosita hisoblanadi. Ular sabab-natija va ritmik umumlashtirishni ta’minlaydi.

Uchinchidan, o‘zbek tilidagi birliklarda obrazlilik, pand-nasihat va ruhiy-axloqiy mazmun kuchli; ingliz tilidagi birliklarda esa sintaktik aniqlik, pragmatik xulosa va individual mas’uliyat semalari ustun.

To‘rtinchidan, struktur qurilish paremiologik birlikning mazmuni, uslubiy ta’siri va lingvokulturologik yuklamasini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Ingliz va o‘zbek tillaridagi e’tiqod mazmunli paremiologik birliklarning struktur xususiyatlarini qiyosiy o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, bunday birliklar xalq tafakkuri va ma’naviy hayotining muhim ifodasi sifatida universallik va milliylikni birlashtiradi. Ularning struktur qurilishi tasodifiy emas, balki mazmunni ixcham, ta’sirchan va esda qolarli tarzda ifodalashga qaratilgan tizimli vositadir.

Mazkur tadqiqot natijalari paremiologiya, qiyosiy tilshunoslik, lingvokulturologiya va tarjimashunoslik uchun muhim ahamiyatga ega. Kelgusida e’tiqod mazmunli paremiologik birliklarni semantik maydonlar, konseptual tahlil, pragmatik vazifa va tarjima muammolari nuqtai nazaridan yanada chuqurroq o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1]. Mieder W. Proverbs: A Handbook. Westport: Greenwood Press, 2004.
[2]. Norrick N.R. How Proverbs Mean: Semantic Studies in English Proverbs. Berlin: Mouton, 1985.
[3]. Taylor A. The Proverb. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1931.
[4]. Dundes A. “On the Structure of the Proverb”. Proverbium, 1964.
[5]. Permyakov G.L. From Proverb to Folk-Tale: Notes on the General Theory of Cliché. Moscow, 1979.
[6]. Kunin A.V. English Phraseology. Moscow, Higher School, 1984.
[7]. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. Toshkent, 1992.
[8]. Mahmudov N. Til va madaniyat. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2004.
[9]. Safarov Sh. Pragmatik tilshunoslik. Toshkent, 2008.
[10]. Yo‘ldoshev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida frazeologiya va paremiologiya masalalari. Toshkent, 2013.
[11]. Вланов С., Флорин С. Непереводимое в переводе, Москва, 1980.
[12]. Arora S. “The Perception of Proverbiality”. “Proverbium”, 1984.
[13]. Krikmann A. Proverbs and Language. Tallinn, 1997.
[14]. Baranov A., Dobrovolskiy D. Aspects of Phraseology Theory. Moscow, 1996.
[15]. Jo‘rayev M. O‘zbek xalq maqollari poetikasi. Toshkent, 2005.

Tursunov Jakhongir Aminovich (Qarshi davlat Texnika universiteti)

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA HARAKAT FE’LLARI LEKSIKOGRAFIYASI: QIYOSIY-SEMANTIK TAHLIL

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida harakat fe’llarining leksikografik talqini qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida harakat semantikasi, yo‘nalish komponenti, polisemantik xususiyatlar hamda lug‘at maqolalarida definitsion ifodalanish usullari o‘rganildi. Ingliz tilidagi izohli lug‘atlar, xususan, Oxford Advanced Learner’s Dictionary hamda Longman Dictionary of Contemporary English materiallari o‘zbek tilining izohli lug‘ati bilan qiyoslandi.*

Kalit so‘zlar: *harakat fe’llari, leksikografiya, semantik tahlil, qiyosiy tilshunoslik, yo‘nalish ma’nosi, polisemantik birliklar, izohli lug‘at.*